UDK 323/321:1(09) (584.4)

MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSION MAKONIDA IJTIMOIY HAMJIHATLIK MUAMMOSI

M.Sh. Abdurahmonov

Maqolada Markaziy Osiyo sivilizatsion makonidagi ijtimoiy hamjihatlik muammosi falsafiy va siyosatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Mintaqaning tarixiy-madaniy merosi, etnik va konfessional xilmaxilligi, davlatlararo munosabatlar va integratsiya jarayonlari ijtimoiy birlikni shakllantiruvchi omil sifatida qaralib, zamonaviy globallashuv sharoitida ijtimoiy hamjihatlikning mintaqaviy taraqqiyot va barqarorlikni saqlashdagi o‘rni ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo, sivilizatsiya, ijtimoiy hamjihatlik, mintaqaviy integratsiya, barqaror taraqqiyot, strategiya.*

В статье анализируется проблема социальной сплочённости в цивилизационном пространстве Центральной Азии с точки зрения философии и политологии. Обосновывается роль историко-культурного наследия региона, этнического и конфессионального многообразия, межгосударственных отношений и интеграционных процессов как факторов формирования социального единства. Также раскрывается значение социальной сплочённости в обеспечении стабильности и устойчивого регионального развития в условиях современной глобализации.

Ключевые слова: *Центральная Азия, цивилизация, социальная сплочённость, региональная интеграция, Новый Узбекистан, социально-философский анализ, устойчивое развитие, стратегия.*

KIRISH

Hozirgi davrda jahon xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti natijasida keng qamrovli globallashuv jarayoni kuchayib bormoqda. Dunyo sivilizatsiyasini va barqarorligini ta’minlashda Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan yaratilgan falsafiy, ilmiy, ma’naviy-madaniy merosning ahamiyati ortib bormoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “...milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, O‘zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini samarali amalga oshirishimiz lozim” [1. B. 288].

Qadimdan Sharqdagi dastlabki sivilizatsiyalar sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik, hunarmandchilik, shaharsozlik va me’morchilik, ichki va tashqi savdo-sotiq faoliyati, san’at va yozuv kabi madaniy, iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan ajralib turgan. Dastlabki sivilizatsiyalar davlatchilik tizimi va shaharlarning ijtimoiy-siyosiy doirasida shakllangan. Bunda shaharlar siyosiy-ma’muriy, iqtisodiy va diniy markazlar sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

Markaziy Osiyo tarixan sivilizatsiyalar kesishgan hudud sifatida shakllangan. Buyuk Ipak yo‘li, islom sivilizatsiyasi, turkiy madaniy meros hamda ko‘p millatli jamiyat shakllanishi mintaqaning ijtimoiy qiyofasini belgilagan. Markaziy Osiyo qadimdan eron-madaniy va turkiy etnomadaniy muhit kesishgan hudud hisoblangan. Baqtriya, So‘g‘diyona, Kushon, Xorazm kabi davlatlar qadimgi Sharq sivilizatsiyasi tarkibida shakllangan.

Markaziy Osiyoning qadimiy va o‘rta asrlardagi madaniy-falsafiy aloqalari tarixini dastlabki, qadimgi va o‘rta asrlar davri bosqichlariga bo‘lish mumkin. Tadqiqotchilar dastlabki bosqich eng qadimgi davrdan boshlab miloddan avvalgi I ming yillikkacha, qadimgi davr Erondagi Ahamoniylar davridan dastlabki o‘rta asrlargacha, o‘rta asrlar bosqichi o‘rta asrlar, Amir Temur va temuriylar davri hamda so‘nggi o‘rta asrlar davrlariga bo‘linishini qayd etadilar [2. B. 12–13].

Arxeologik va tarixiy manbalarga ko‘ra, Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi I ming yillikdayoq davlatchilik, shaharsozlik va savdo tizimi rivojlangan [3. B. 45–60]. V.Bartoldning ta’kidlashicha, So‘g‘diyona va Baqtriya hududi Sharq va G‘arb o‘rtasidagi

ilk sivilizatsion muloqot markazlaridan biri bo‘lgan [4. B. 25–48].

VII–VIII asrlarda Markaziy Osiyo islom sivilizatsiyasi makoniga aylandi. Bu jarayon islom huquqiy tizimi, ta’lim muassasalari, ya’ni madrasalar faoliyati orqali ilm-fan taraqqiyotiga kuchli turtki berdi. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy kabi allomalar faoliyati mintaqaning islom sivilizatsiyasidagi o‘rnini mustahkamladi. O‘zbek tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, Markaziy Osiyo IX–XII asrlarda “Islom Renessansi” markazlaridan biri bo‘lgan [5. B. 45–60].

VI asrdan boshlab turkiy xoqonliklar davrida mintaqada turkiy davlatchilik an’analari shakllandi va keyinchalik qoraxoniylar, saljuqiylar va temuriylar davrida turkiy-islomiy sintez yuzaga keldi. Rus olimlari turkiy sivilizatsiyani “ko‘chmanchi va o‘troq madaniyat sintezi” sifatida baholaydilar [6. B. 112–140].

MATERIAL VA USULLAR

Maqolada qo‘yilgan muammo O‘.Mavlonov va D.Mahkamovaning “Madaniy aloqalar va savdo yo‘llari” [2], A.A.Asqarovninrg “O‘zbekiston tarixi” [3], R.Nosirovning “Islom sivilizatsiyasi va Markaziy Osiyo” [5], L.N.Gumilyovning “Qadimgi turklar” (“Древние тюрки”) [6], A.X.Saidovning “Markaziy Osiyo: tarix va zamonaviylik” [7] asarlari asosida yoritildi. Shuningdek, hozirgi globallashuv jarayonida ijtimoiy birdamlikning mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rnini asoslashda L.M.Drobijevaning “Millatlararo munosabatlarning ijtimoiy muammolari” (“Социальные проблемы межэтнических отношений”) [8], M.T.Laumulinning “Markaziy Osiyo xorijiy siyosatshunoslik va jahon geosiyosatida” (“Центральная Азия в зарубежной политологии и мировой геополитике”) [9] asarlari o‘rganilib, tahlil qilindi.

Materiallarni turkumlash hamda mustaqil xulosalarni umumlashtirish jarayonida mavjud ma’lumotlarni ijtimoiy falsafa kategoriyalari asosida yoritish imkonini beruvchi sivilizatsion yondashuv, shuningdek, tarixiylik, analiz va sintez usullari qo‘llanildi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

“Markaziy Osiyo” atamasi siyosiy-geografik tushuncha bo‘lib, bugungi kunda mintaqaga Qozog‘iston, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston respublikalari kiradi. Bu mintaqa hududi turli davrlarda “Turon”, “Turkiston”, “Movarounnahr”, “O‘rta Osiyo” deb atalgan va hozirda“Markaziy Osiyo” deb nomlanmoqda. Tarixiy davrlarda bu mintaqalar hududiy jihatdan bir-biridan farq qilgan, albatta. Markaziy Osiyo qadimgi davrlardan boshlab dunyoning salohiyatli tarixiy, ma’naviy-madaniy va falsafiy merosga ega mintaqalaridan hisoblangan, turli sivilizatsiyalar vujudga kelishiga sabab bo‘lgan, jahon dinlari va falsafiy bilimlarining rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining qadriyatlari, davlat tashkil etish, uni boshqarish ilmi va to‘plagan tajribasi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Bu mintaqada qadimiy sivilizatsiyalar, zardushtiylik va buddizm kabi dunyo dinlari asoslari shakllangan. Movarounnahr qadimdan turli ijtimoiy-madaniy sivilizatsiyalar, ijtimoiy-falsafiy bilimlar taraqqiy qilgan, o‘zaro diniy bag‘rikenglik muhitida rivojlangan makon edi. Shuningdek, dunyoning asosiy savdo-transport tizimi bo‘lgan Buyuk Ipak yo‘li aynan shu hududdan o‘tgan. Mintaqada shaharlarning paydo bo‘lishi jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, boshqaruv tizimining murakkablashuvi, ijtimoiy munosabatlar, savdo-sotiq rivoji hamda diniy va falsafiy qarashlardagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Mazkur omillar eramizdan avvalgi III–II ming yilliklardayoq shahar tipidagi aholi maskanlarining shakllanishiga olib kelgan. Ilk shaharlarda aholi soni ortib borgan, hunarmandchilik rivojlangan, turarjoy va jamoat binolari barpo etilgan, bozorlar shakllangan va qishloq aholisi shaharlarga jalb etilgan.

Markaziy Osiyo qadimdan Sharq va G‘arbni bog‘lovchi sivilizatsion makon bo‘lib kelgan. Bu hududda shakllangan davlatlar, madaniyatlar va diniy an’analar o‘zaro ta’sirda rivojlangan. Ijtimoiy hamjihatlik muammosi turli tarixiy davrlarda turlicha namoyon bo‘lgan: ayrim davrlarda umumiy qadriyatlar va integratsiya ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, boshqa davrlarda siyosiy parokandalik va tashqi bosqinlar ijtimoiy birlikni zaiflashtirgan. Markaziy Osiyoda ilm-fan jadal rivojlangan IX–XII asrlar ilk uyg‘onish davri sanaladi va ko‘pincha Birinchi Renessans deb ataladi. Bu davrda somoniylar, xorazmshohlar, g‘aznaviylar, qoraxoniylar, saljuqiylar sulolalari hukmronligi davrida Samarqand, Buxoro, Marv, Urganch, Qiyot shaharlari yirik madaniy va ilmiy markazlarga aylangan. Mintaqa islom dunyosida ilm-ma’rifat markaziga aylanib, falsafiy va tabiiy fanlar jadal rivojlangan hududlardan biri bo‘lgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Yassaviy, Mahmud Koshg‘ariy kabi buyuk allomalar ilm-fan taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shganlar.

Markaziy Osiyoda turkiy til va madaniyat umumiy identiklikning muhim qismiga aylangan. XIV–XV asrlarda, ya'ni Amir Temur va temuriylar davrida Samarqand va Hirot nafaqat siyosiy, balki ilmiy va madaniy markaz sifatida ham yuksak taraqqiyotga erishdi. Amir Temurning davlatchilik tizimi markazlashgan boshqaruv, qat'iy tartib va madaniy rivojlanish bilan ajralib turadi. Bu davr ko'pincha Ikkinchi Renessans deb qaraladi. Amir Temur turli xalqlarni yagona siyosiy-huquqiy makonda birlashtirishga qaratilgan siyosat olib bordi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy integratsiyani ta'minlashga erishdi. Bu davrda Movarounnahr hududi siyosiy jihatdan birlashtirildi, ilm-fan va madaniyat rivojlandi, iqtisodiy aloqalar kengaydi. Chingiziylarning urushlari natijasida to'la quvvat bilan faoliyat yuritmagan Buyuk Ipak yo'lida savdo aloqalarining tiklanishi Amir Temur va temuriylar davlatining siyosiy-iqtisodiy qudratini oshirdi, savdo yo'llarining kengayishi va karvonlar xavfsizligining ta'minlanishi, tovarlar aylanmasi hajmining oshishi, soliqlarning tartibga solinishi jamiyat hayotining yuksalishiga olib keldi. Buyuk Ipak yo'li orqali mintaqada rivoj topgan diniy va dunyoviy bilimlar, iqtisodiy taraqqiyot butun islom olami va Yevropaga tarqala boshladi.

XX asrda Markaziy Osiyo sovet sivilizatsion modeli ta'siri ostiga tushdi hamda bu davr sanoatning rivojlanishi, ommaviy savodxonlikning oshishi, mintaqada milliy respublikalarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Sovet davrida bu jarayon "sotsialistik modernizatsiya" sifatida talqin qilingan.

Mintaqaviy hamkorlik munosabatlarida madaniy va diniy omillarni asosiy omil sifatida ko'rish mumkin, chunki mintaqadagi hozirgi davlatlar asrlar davomida yagona siyosiy-iqtisodiy makon ko'rinishida bir davlat tarkibida mavjud bo'lgan. Jamiyatdagi ijtimoiy hamjihatlik barqarorlik, umumiy qadriyatlar, institutsional tartibning shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Markaziy Osiyoda umumiy tarixiy xotira, turkiy va forsiy madaniy meros, islomiy qadriyatlar ijtimoiy birlikni ta'minlovchi sivilizatsion omillar hisoblanadi. Shunga ko'ra, A.Saidov Markaziy Osiyoda madaniy hamjihatlikni "mintaqaviy barqarorlikning sivilizatsion poydevori" sifatida baholaydi [7. B. 112–118], rus tadqiqotchilaridan L.Laumulin esa mintaqaning geosiyosiy birligi uning ijtimoiy barqarorligi bilan bog'liq ekanligini qayd etadi [9. B. 54–63].

Ta'kidlash joizki, globallashuv va axborot oqimlari milliy identiklik inqirozi, radikalizm, mehnat migratsiyasi bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni, bu esa o'z navbatida ijtimoiy barqarorlikning zaiflashuvini keltirib chiqardi. Markaziy Osiyoda ham ushbu jarayonlar ijtimoiy hamjihatlikka sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada jamiyatda individualizm kuchayib, mintaqaviy va milliy qadriyatlar o'rnini ommaviy madaniy qadriyatlar egallashi xavfi ortib bormoqda.

Mintaqadagi hozirgi davlatlar o'rtasida ilgaridan etnik yaqinlik, til umumiyligi, madaniy va ijtimoiy uyg'unlik, an'anaviy tinch-totuv qo'shnichilik munosabatlari mavjud bo'lgan. Bugungi kunda esa siyosiy muloqot mexanizmlari, gumanitar hamkorlik, davlatlar o'rtasida ta'lim va madaniy almashinuv dasturlari hamda iqtisodiy-ijtimoiy aloqalarni barqaror rivojlantirishga intilish kuchaydi. Markaziy Osiyo sivilizatsion makonida ijtimoiy hamjihatlik muammosini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mintaqa umumiy tarixiy-madaniy meros va qadriyatlar negizida shakllangan integratsion potensialga ega. Sivilizatsion yondashuv nuqtayi nazaridan, ijtimoiy birlik ko'pincha tashqi chaqiriqlarga javob sifatida shakllanadi. Bu konsepsiya Markaziy Osiyo sharoitida ekologik va geosiyosiy omillar fonida hamjihatlik kuchayganini izohlaydi. Samuel Xantington sivilizatsion farqlar siyosiy ziddiyatlarga sabab bo'lishini qayd etadi [10. B. 43]. Ammo Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi umumiy islomiy va turkiy meros amalda ziddiyat emas, balki integratsiya omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Demak, S.Xantington nazariyasi barcha hududlar uchun universal xarakterga ega emasligi mintaqa misolida yaqqol ko'rinadi. Ijtimoiy hamjihatlikning institutsional asoslarini tahlil qilar ekanmiz, ijtimoiy kapital konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. R.Patnam jamiyatdagi ishonch darajasi institutlar samaradorligini belgilashini ta'kidlaydi [11. B. 67]. Mintaqada 2017-yildan keyin davlat rahbarlarining muntazam maslahat uchrashuvlari o'tkazilishi va savdo hajmining oshishi ijtimoiy ishonch institutsional darajada mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Etnik va madaniy identiklik nuqtayi nazaridan B.Anderson millatni "tasavvur qilingan siyosiy hamjamiyat" sifatida ta'riflaydi [12. B. 6]. Bu g'oyaga ko'ra, umumiy ramzlar va tarixiy xotira ijtimoiy birlikni shakllantiradi. Rus tadqiqotchisi L.M.Drobijeva esa millatlararo munosabatlarda teng huquqlilik barqarorlik omili ekanini ta'kidlaydi [8. B. 120]. Markaziy Osiyo davlatlarida ko'pmillatlilik sharoitida huquqiy kafolatlar ijtimoiy barqarorlikni ta'minlayotgani kuzatiladi. Mintaqaning turli madaniy hududlari qadimgi davrlardan boshlab o'zaro va qo'shni xalqlar bilan yaqin ijtimoiy-madaniy aloqalarda bo'lib keldi. Bu munosabatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli sohalaridagi hamkorlik, erishilgan yangiliklarni o'zaro bo'lishish, savdo-sotiq va diplomatik munosabatlar, hunarmandchilik, shaharsozlik, adabiyot va san'atning o'zaro bir-biriga ta'siri, diniy-falsafiy g'oyalar va axloqiy mezonlar almashinuvi, ilm-fan yo'nalishlaridagi hamkorlik, dehqonchilik va qayta ishlash sohalaridagi almashuvlar tarzida amalga oshirib kelindi. Natijada mintaqada vujudga kelgan yuksak rivojlangan sivilizatsiya o'z atrofidagi shunga o'xshash sivilizatsiyalar bilan o'zaro aloqaga kirishish va bevosita ta'sir ko'rsatish orqali rivoj topgan va bir-birini to'ldirgan. Masalan, xorazmliklar janubiy Turkmaniston

va shimoli-sharqiy Eron hududlaridagi qadimgi dehqonchilik madaniyati bilan uzviy aloqada bo‘lganlar va bu aloqalarni sivilizatsiyalararo munosabatlar sifatida ta’riflash mumkin [13. B. 7].

Ekologik omillar tahlili shuni ko‘rsatadiki, transchegaraviy suv resurslari hamkorlik yoki ziddiyat manbai bo‘lishi mumkin. K.Vittfogel suv resurslarining davlat tuzilmalari va siyosiy munosabatlarga ta’siri katta ekanini qayd etadi [14. B. 270]. Ammo Markaziy Osiyo sharoitida suv masalasidagi kelishuvlar integratsion mexanizmga aylanayotgani kuzatilmoqda.

M.Kastels tarmoqli jamiyat sharoitida kommunikatsiya ijtimoiy munosabatlarni belgilashini ta’kidlaydi [15. B. 30]. Mintaqada media hamkorlik va qo‘shma axborot platformalarining shakllanishi ijtimoiy yaqinlashuvni rag‘batlantirmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari tarixiy jihatdan yagona sivilizatsion makon sifatida shakllangan bo‘lsa-da, hozirgi globallashuv va geosiyosiy raqobat sharoitida davlatlar o‘rtasidagi ijtimoiy hamjihatlik murakkab omillar ta’sirida rivojlanmoqda. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan, hamjihatlik – bu umumiy qadriyatlar, o‘zaro ishonch, adolatli manfaatlar muvozanati va institutlar barqarorligiga tayangan dinamik jarayondir. Chegara va etnik masalalarni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish jarayonida milliy-hududiy chegaralash tarixi, anklavlar muammosi, etnik aralashuv, suv-yer resurslari taqsimoti va identiklik masalalarini ko‘rib chiqish muhim. Muammolarni hal etishda adolat, ishonch va institutsional muloqot tamoyillarini asosiy yechim sifatida ko‘rish mumkin. Jumladan, Markaziy Osiyo tarixan yagona sivilizatsion makon bo‘lib shakllangan, biroq XX asrdagi milliy-hududiy chegaralash natijasida etnik tarkib, iqtisodiy aloqalar va geografik yaxlitlik to‘liq inobatga olinmaganligi qator muammolarni vujudga keltirgan. Ijtimoiy-falsafiy jihatdan chegara va etnik masalalar – bu faqat geosiyosiy emas, balki adolat, identiklik va ijtimoiy ishonch masalasidir.

Shuningdek, 1924–1936-yillarda amalga oshirilgan chegaralash jarayonida etnik aralashuv yuqori bo‘lgan hududlar (Fag‘ona vodiysi, Xorazm hududi) turli respublikalar tarkibiga kiritilishi natijasida anklav va eksklavlar shakllandi (So‘x, Vorux va boshqalar), kommunikatsiya yo‘llari davlat chegaralari bilan ajratildi hamda aholi turmushi transchegaraviy xususiyat kasb etdi. Ushbu jarayonning salbiy ta’siri, chegara delimitatsiyasi to‘liq yakunlanmaganligini 2021–2022-yillardagi Qirg‘iziston va Tojikiston chegarasida yuz bergan qurolli to‘qnashuvlar misolida ko‘rish mumkin. Chegara muammosi ijtimoiy ishonch inqiroziga sabab bo‘ladi, aholi o‘zining tarixiy makoni va iqtisodiy manfaatlari cheklanganini his qiladi. Biroq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan so‘nggi yillardagi mintaqaviy ochiqlik siyosati tufayli O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan chegara muammolari hal qilindi, barcha sohalarda hamkorlik kuchayib, o‘zaro integratsiyalashuv jarayoni, davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini muntazam o‘tkazish, diplomatik aloqalarning kengayishi hamjihatlikni mustahkamlamoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari ko‘p millatli xususiyatga ega bo‘lib, millatlararo barqarorlik teng huquqlilik va institutsional kafolatlarga bog‘liqdir. Bu vaziyatda respublikalar til bo‘yicha bag‘rikenglikka asoslangan muvozanatli siyosat yuritishlari, mahalliy hokimiyat boshqaruvida etnik millatlar vakillari ishtirokini ta’minlash, ularning o‘z ona tillarida ta’lim olishlarini kafolatlash va madaniy huquqlar taqdim qilish ijtimoiy hamjihatlikka olib keladi.

Mavjud chegara va etnik muammolarni hal etish faqat texnik-huquqiy yoki diplomatik kelishuvlar bilan cheklanmaydi. Ularning ildizi ijtimoiy adolat, identiklik, resurs taqsimoti va o‘zaro ishonch kabi fundamental falsafiy kategoriyalarga borib taqaladi. Shuning uchun yechim modeli ko‘p qatlamli ijtimoiy-falsafiy asosga tayanishi zarur. Amerikalik olim J.Rols “adolat – ijtimoiy institutlarning birinchi fazilati” ekanini ta’kidlab, “adolatli teng imkoniyatlar” tamoyiliga ko‘ra chegaraoldi hududlarda resurslar va siyosiy ishtirokni teng taqsimlash zarurligini asoslaydi [16. B. 53]. Shu tamoyilga asoslanib, Markaziy Osiyo sharoitida adolat yer va suv resurslarini teng taqsimlash, etnik guruhlar huquqini kafolatlash, mahalliy boshqaruvda ishtirok imkoniyatini ta’minlash orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, mintaqa davlatlari tomonidan (xususan, Farg‘ona vodiyisi hududida Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida) chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish, konstitutsion kafolatlar taqdim etish hamda etnik guruhlar madaniy avtonomiyasini ta’minlash bo‘yicha davlatlararo kelishuvlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chegara muammosining keskinlashuvi aksariyat holatlarda ishonch inqirozi bilan bog‘liqligini hisobga olish zarur, hukumatlarning doimiy qo‘shma komissiyalari, shaffof muzokaralar olib borish, chegaraoldi kengashlari va jamoatchilik muloqotini kengaytirish ishonchni institutsionallashtirish vositasi hisoblanadi.

Bu muammoning ijobiy yechimiga so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida chegaralarni kelishilgan holda belgilash jarayonini misol qilib keltirish mumkin, bu ishonchni tiklashning amaliy namunasi bo‘ldi hamda davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning normallashuvi mintaqaviy hamjihatlik tendensiyasini kuchaytirdi.

Ta’kidlash joizki, mintaqa mamlakatlari asosan agrar sohaga va agrar sanoatga ixtisoslashganligi bois transchegaraviy suv resurslari Markaziy Osiyoda strategik ahamiyatga ega. Shu bois mintaqada suv ustidan nazorat davlatlararo munosabatlarga katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Farg‘ona vodiysida

asosiy suv manbalari, sug‘orish kanallari chegara orqali o‘tadi, hududda yer taqsimoti bo‘yicha davlatlar o‘rtasida kelishmovchiliklar mavjudligi hamda chorvachilik yo‘llari cheklanganligi kabi omillar ijtimoiy keskinlikni kuchaytiradi.

Mintaqada har bir davlat milliy davlatchilikni mustahkamlayotgan sharoitda mintaqaviy identiklik bilan muvozanat muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishdagi asosiy muammolar har bir davlatning milliy tarixini talqin qilishdagi farqning mavjudligi, ya’ni o‘ziga xoslik, millatchilikni targ‘ib qilish, mintaqaviylikni istisno qilish holatlari mintaqaviy hamjihatlikni ta’minlashda muayyan muammolar tug‘diradi. Bundan tashqari milliy ramzlar va siyosiy ritorikada qo‘shni etnik guruhlarga nisbatan ehtiyotkor siyosat olib bormaslik ham hamjihatlikka raxna solishi tabiiy. Milliy davlatchilikni mustahkamlash jarayonida qo‘shni xalqlar bilan umumiy sivilizatsion identiklikni saqlash muhim. Markaziy Osiyoda milliy identiklik va mintaqaviy sivilizatsion identiklik mavjudligi bois ularni raqobatli emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi qadriyat sifatida talqin qilish mamlakatlar jamiyatlarini o‘zaro yaqinlashtiradi, tinch-totuv yashashlariga sabab bo‘ladi, tarixiy madaniy-falsafiy qadriyatlarni umumiy boylik sifatida ko‘rib, ularni zamonaviy qadriyatlar fonida birga taraqqiy qildirishga harakat qiladilar.

Mintaqaviy hamjihatlikni madaniy-ma’naviy darajada ta’minlashda umumiy tarixiy merosni birgalikda tadqiq etishga tomonlar ilmiy doiralarini faol jalb etish, yoshlar almashinuv dasturlarini, qo‘shma ta’lim va media platformalarni ishlab chiqish va amalga oshirish ishonch va umumiy identiklikni mustahkamlaydi. Mintaqa davlatlari o‘rtasida radikalizm va ekstremizm ko‘rinishlariga qarshi birgalikda kurash olib borish bo‘yicha o‘zaro kelishuvlarga erishish Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy hayotni sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoda mavjud muammolarning ijtimoiy-falsafiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning ildizi faqat geografik omillar bilan emas, balki adolat va ishonch tamoyillarining yetarli darajada qaror topmaganligi bilan ham bog‘liqdir. Barqaror yechimlar esa nafaqat huquqiy, balki madaniy va ijtimoiy darajada ham amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, mintaqaviy integratsiya milliy davlatchilikka tahdid emas, aksincha, uni mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi. Umumiy mintaqaviy sivilizatsion meros esa strategik resurs sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyoda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash mintaqaviy barqarorlikning strategik shartidir. Mintaqaning turkiy-islomiy meros, Ipak yo‘li an’analari, qo‘shnichilik madaniyati kabi tarixan shakllangan yagona madaniy-sivilizatsion ildizlari ijtimoiy integratsiya uchun mustahkam ma’naviy poydevor yaratadi. Biroq globallashuv, migratsiya, axborot makonidagi transformatsiyalar, suv-energetika va chegaraviy masalalar ijtimoiy ishonch va hamkorlikka ta’sir etuvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy hamjihatlik nafaqat tarixiy-madaniy merosga tayanish, balki zamonaviy institutlar, huquqiy mexanizmlar va fuqarolik jamiyati institutlari orqali mustahkamlanishi lozim bo‘lgan dinamik jarayondir. Mintaqadagi so‘nggi yillardagi ochiqlik siyosati va ko‘p tomonlama hamkorlik formati ijtimoiy ishonchni oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman, Markaziy Osiyo sivilizatsion makonida ijtimoiy hamjihatlik tarixiy meros va zamonaviy islohotlar uyg‘unligiga asoslangan ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Markaziy Osiyo hududida ijtimoiy hamjihatlik tarixan doimo muayyan sivilizatsion omillar – umumiy iqtisodiy makon, ma’naviy qadriyatlar, siyosiy boshqaruv shakli va tashqi ta’sirlar bilan bog‘liq holda shakllanib kelgan. Qadimgi davrlarda savdo yo‘llari va madaniy almashinuv ijtimoiy yaqinlashuvni ta’minlagan bo‘lsa, islom sivilizatsiyasi davrida yagona diniy-ma’naviy maydon xalqlar o‘rtasida axloqiy va madaniy birlikni mustahkamlagan hamda al-Forobiy ilgari surgan “fozil jamiyat” g‘oyasi ana shu ma’naviy uyg‘unlikka nazariy asos bo‘lgan. Amir Temur davrida siyosiy markazlashuv va huquqiy tartib barqarorlikni ta’minlagan bo‘lsa, keyingi parokandalik davrlarida umumiy manfaatlardan ko‘ra mahalliy raqobat ustuvor bo‘lib, hamjihatlik susaygan. Rossiya imperiyasi istilosi va sovet davrida esa integratsiya ma’muriy-siyosiy yo‘l bilan amalga oshirilgani sababli ijtimoiy birlik tabiiy emas, balki markazlashgan tizimga bog‘liq holda namoyon bo‘lgan. Mustaqillik davrida mintaqa davlatlari milliy davlatchilikni mustahkamlash bilan birga, o‘zaro ishonch va manfaatlar muvozanatiga asoslangan mintaqaviy hamkorlik modelini shakllantirmoqda. Bu jarayonda ochiq muloqot, iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik va umumiy madaniy merosni anglash hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’noda, Markaziy Osiyo sivilizatsion makonida barqaror ijtimoiy hamjihatlik faqat siyosiy birlashish emas, balki adolatli resurs taqsimoti, o‘zaro ishonch, ma’naviy umumiylik va institutsional muloqot uyg‘unligiga tayangan holdagina ta’minlanadi, chunki aynan shu omillar tarixiy tajribada eng barqaror va uzoq muddatli birlikni shakllantirgan.

XULOSA

Markaziy Osiyo mintaqasi qadimgi Sharq, islom va umumiy turkiy tamaddunlari, temuriylar Renessansi, sovetlar davrining hamda mintaqa davlatlarining mustaqillik yillaridagi jamiyatni takomillashtirish jarayonlari asosida shakllangan ko‘p qatlamli sivilizatsion makondir. Bugungi Markaziy Osiyoda umumiy tarixiy meros

va madaniy yaqinlik mintaqaviy hamkorlik va ijtimoiy hamjihatlikning poydevorini tashkil etadi. Umuman olganda, Markaziy Osiyo sivilizatsion makonida ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash uchun tarixiy umumiylikni zamonaviy integratsion mexanizmlar bilan uyg'unlashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. *Mirziyoyev Sh.M*. Yangi O'zbekiston strategiyasi – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. *Mavlonov O'., Mahkamova D.* Madaniy aloqalar va savdo yo'llari. – Toshkent: Akademiya, 2004. – 122 b.
3. *Asqarov A.A*. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. – 512 b.
4. *Бартолд В.В.* Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Наука, 1963. – 760 с.
5. *Nosirov R.* Islom sivilizatsiyasi va Markaziy Osiyo. – Toshkent: Sharq, 2017. – 224 b.
6. *Гумилёв Л.Н.* Древние тюрки. – Москва: Наука, 1967. – 504 с.
7. *Saidov A.X*. Markaziy Osiyo: tarix va zamonaviylik. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 256 b.
8. *Дробижева Л.М*. Социальные проблемы межэтнических отношений. – Москва: Наука, 2002. – 271 с.
9. *Лаумулин М.Т*. Центральная Азия в зарубежной политологии и мировой геополитике. – Алматы: КИСИ, 2005. – 312 с.
10. *Huntington S.P*. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon & Schuster, 1996. – 367 p.
11. *Putnam R.D*. Making Democracy Work. – Princeton: Princeton University Press, 1993. – 258 p.
12. *Anderson B*. Imagined communities: Reflections on the origin and spread of nationalism. – London: Verso, 2006. – 240 p. .
13. *Вайнберг Б.И*. Памятники Куюсайской культуры / Кочевники на границах Хорезма. Труды ХАЭЭ. Т. XI. – Москва: Наука, 1979. – С.7–76 с.
14. *Wittfogel K.A*. Oriental Despotism. – New Haven: Yale University Press, 1957. – 556 p.
15. *Castells M*. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996. – 556 p.
16. *Rawls J.* A Theory of Justice. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1999. – 538 p.

THE PROBLEM OF SOCIAL COHESION IN THE CENTRAL ASIAN CIVILIZATION SPACE

Mukhiddin Sh. Abdurakhmonov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 1(93). 5-11.

[1]National University of Uzbekistan, Tashkent, 100174, str. University, 4 (Uzbekistan). E-mail: uzmu@exat.uz

Key words: *Central Asia, civilization, social cohesion, regional integration, socio-philosophical, sustainable development, strategy*

The article ia analyzed the problem of social cohesion in the civilizational space of Central Asia from the point of view of philosophy and political science, and substantiates the historical and cultural heritage of the region, ethnic and confessional diversity, interstate relations and integration processes as a factor shaping social unity, and the role of social cohesion in stability and regional development in the conditions of modern globalization.

In the current process of increasing comprehensive globalization, the philosophical, scientific, spiritual and cultural heritage created by Central Asian thinkers is of great importance in ensuring the stability of world civilization. As part of the research, a civilizational approach was used, which allows revealing existing information through social philosophy categories, as well as methods of historicism, analysis, and synthesis of philosophical research, using sources such as modern philosophical views, historical stages of development of Central Asian civilization, socio-economic, cultural-philosophical heritage, and works of Uzbek and foreign researchers. In the

process of categorizing materials and generalizing independent conclusions, the materials were categorized and the available information was summarized using the methods of civilizational approach, analysis, and synthesis of philosophical research. The methodological basis of the article is the conceptual ideas set out in the work of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M.Mirziyoyev, “Strategy of the New Uzbekistan”, and scientific research on the topic.

Social cohesion in Central Asia has historically always been shaped by certain civilizational factors - a common economic space, spiritual values, a form of political governance, and external influences. While political centralization and legal order provided stability during the time of Amir Temur, in the subsequent periods of chaos, local competition took precedence over common interests, and cohesion weakened. During the Russian Empire’s occupation and the Soviet era, integration was carried out through administrative and political means, so social unity was not natural, but rather dependent on a centralized system. To draw independent conclusions on the directions of the foreign policy of the new Uzbekistan, including the development of political, socio-economic relations with the countries of Central Asia, studies in this area, works of foreign scholars, information from international organizations, and the opinions of Uzbek and foreign philosophers and social scientists were used.

In today’s Central Asia, common historical heritage and cultural affinity form the foundation of today’s regional cooperation and social cohesion. Today, combining historical commonality with modern integration mechanisms is of strategic importance to strengthen social cohesion in the Central Asian civilizational space.

References:

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2021). *Yangi O‘zbekiston strategiyasi* [New Uzbekistan Strategy]. Tashkent: “O‘zbekiston” nashriyoti.

2. Mavlonov, O‘., Mahkamova, D. (2004). *Madaniy aloqalar va savdo yo‘llari* [Cultural contacts and trade routes]. Tashkent: Akademiya.

3. Asqarov, A.A. (2015). *O‘zbekiston tarixi* [History of Uzbekistan]. Tashkent: O‘qituvchi.

4. Bartold, V.V.(1963). *Turkestan v epohu mongol’skogo nashestviya* [Turkestan during the Mongol invasion]. Moscow: Nauka.

5. Nosirov, R. (2017). *Islom sivilizatsiyasi va Markaziy Osiyo* [Islamic civilization and Central Asia]. Tashkent: Sharq.

6. Gumilyov L.N.(1967). *Drevnie tyurki* [Ancient Turks]. Moscow: Nauka.

7. Saidov A. X. (2018). *Markaziy Osiyo: tarix va zamonaviylik* [Central Asia: history and modernity]. Tashkent: O‘zbekiston.

8. Drobizheva, L.M. (2002). *Social’nye problemy mezhetnicheskih otnoshenij* [Social problems of interethnic relations]. Moscow: Nauka.

9. Laumulin, M.T. (2005). Central’naya Aziya v zarubezhnoj politologii i mirovoj geopolitike [Central Asia in Foreign Political Science and World Geopolitics]. Almaty: KISI.

10. Huntington, S. P. (1996). *The clash of civilizations and the remaking of world order*. New York: Simon & Schuster.

11. Putnam, R.D. (1993). *Making democracy work: Civic traditions in modern Italy.* Princeton, NJ: Princeton University Press.

12. Anderson, B. (2006). *Imagined communities: Reflections on the origin and spread of nationalism*. London, UK: Verso.

13. Vajnberg, B.I. (1979). *Pamyatniki Kuyusajskoj kul’tury* [Monuments of the Kuyusai culture]. In: Kochevniki na granicah Horezma. Trudy HAEE. [Nomads on the borders of Khorezm. Proceedings of the Khabarovsk Archaeological Museum]. Vol. XI. Moscow: Nauka. Pp. 7-76.

14. Wittfogel, K. A. (1957). *Oriental despotism: A comparative study of total power*. New Haven, CT: Yale University Press.

15. Castells, M. (1996). *The rise of the network society*. Oxford, UK: Blackwell.

16. Rawls, J. (1999). *A theory of justice* (Rev. ed.). Cambridge, MA: Harvard University Press.

Muallif haqida ma’lumot:

ABDURAHMONOV Muhiddin Shamsiyevich – siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori, O‘zbekiston Milliy universiteti Falsafa kafedrasi dotsenti. E-mail: Muxiddin1967@gmail.com